



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY ILMIY TADQIQOTLAR O'RNI

Jumamuratov Renat Esenbaevich

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konchilik instituti
"Umumtexnika" fakulteti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Pirnepesova Kumush Guvanch qizi

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konchilik institute
talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolaning asosiy mazmuni va mohiyati oliy ta'lim muassasalarida ta'lim faoliyatiga qaratilgan pedagogik kadrlar tayyorlash dasturining zamonaviy ilm-fan jihatdan tahlil qilishdan iborat bo'ladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish va salohiyatini yanada takomillashtirishdan iborat bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi OTM lar (Oliy ta'lim muassasalari) da o'qituvchilarning bilimlarni talabalarga yetkaza olish qobiliyatlari, nutq faolligi va pedagogik salohiyatini oshirishda zamonaviy o'quv metodlaridan foydalanishning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Aralash metodik asosda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim dasturida qo'llaniladigan yondashuv natijalariga asoslangan holda, bu tadqiqot oliy ta'lim o'qituvchilarining o'qitish metodikasi darajasini baholaydi. Ushbu ilmiy tadqiqot asosida muallif muhokama qiladigan ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun namuna bo'ladigan jihatlarini keltirib o'tdi. Yurtimizdagi oliy o'quv yurtlarida muvaffaqiyatli pedagogik kadrlar tayyorlash dasturlarini yanada takomillashtirishda ta'lim modellari va pedagogik metodlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit So'Zlar: Oliy ta'lim muassasalari, pedagogik metodlar, pedagogik salohiyat, pedagogik mahorat, talabalarning fanga qiziqishi, ilmiy tadqiqot markazlari, zamonaviy ta'lim dasturi.

Kirish

Hozirgi kunga kelib O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarida har bir o'qituvchining pedagogik tayyorgarligining asosiy elementlari va bosqichlarini hisobga olgan holda oliy ta'lim tizimi o'qituvchilarini tayyorlash, ularning pedagogic mahoratini va fanga bo'lgan salohiyatini oshirishda yangicha tizimlarni tashkil etib borish maqsadga muvofiqdir. Bunda ta'limning zamonaviy usullaridan va yangi metodlardan foydalanish nazarda tutilgan. Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchining zamonaviy o'quv dasturida shakllantirgan fanga doir metodlari ahamiyati haqidagi munozaralar markazida asoslangan pedagogik usullardan foydalanish haqida sifatli ma'lumot uchun pedagogika faoliyati oliy ta'lim muassasalarida o'qitish tizimidagi zamonaviy dasturlarni keng targ'ib qilish bo'yicha ko'rsatmalar berib boriladi. Hozirgacha, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi fakultetni rivojlantirish, o'qitish bilan bog'liq tajribalar va ko'nikmalarning ijobiy natijalari uchun ta'lim dasturlariga e'tibor juda yuqori darajada. Oliy ta'lim muassasalariga kasbiy rivojlanish dasturlarini taqdim etish, unda ishtirok



etayotgan professor-o'qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega. Tajribali pedagog va psixologlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'qituvchilarning pedagogik mahoratiga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. O'qituvchilar tadqiqot davomida takomillashtirishning beshta asosiy yo'nalishiga e'tibor qaratdilar. Bular pedagogik mahorat, o'qituvchi salohiyati, o'qituvchilarning tushunchasi, ya'ni zamonaviy ta'lim mezonini ishlab chiqdi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi o'qituvchilarining fikrlarini tahlil qilishga qaratilgan oliy davlat ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan pedagogik kadrlar tayyorlash dasturini taqdim etadi. Oliy ta'lim muassasalarida tadqiqotlarning maqsadi asosan ikki xil bo'ladi: Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning pedagogik mahorati va fanga bo'lgan salohiyatini oshirishda zamonaviy modellardan va metodlardan foydalanish darajasini aniqlashdan iborat bo'ladi. Ushbu amaliy tadqiqot asosida muallif yangi pedagogik metodlardan foydalanish usullarini taklif qiladi. Ta'lim tizimida ustuvor yo'nalishlarni belgilab olish zarur. Hozirgi kunga kelib pedagoglardan sifatli ta'limni talab qiladi. Bunda fanga doir hat bir fan o'qituvchisi dars vaqtida nazorat savollari yoki mavzuga doir har turli esda qolarli mashg'ulotlarni amalga oshirishi mumkin. Bundan asosiy maqsad talabalarga sifatli bilim berish, ularni fanga qiziqtirish va yangi bilimlarni egallashi uchun yordam berishdan iborat. Talabalarning qiziqishlarini oshirishda o'qituvchi tomonidan tayyorlangan metod asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha tadqiqotlar ushbu maqolada pedagogik kasbiy rivojlanish asoslari natijalari ham ko'rib chiqiladi. Bular asosan oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilardan talab qilinadigan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish bo'yich nazariy tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda targ'ib qilinadi. Bular uchun juda muhim ta'lim sifatini oshirish, ta'limda doimiy takomillashtirish ma'daniyatini shakllantirish, o'qituvchilarning ilmiy salohiyati rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Talabalarni tayyorlashda fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalash tizimi faoliyati sifat xususiyatlarining ijobiy tendentsiyalari mohiyatini o'qituvchilarining kasbiy rivojlanish dasturiga qo'yiladigan talablarni doimiy ravishda oshirish bilan amalga oshirilishi mumkin degan fikrlarni keltirishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu tadqiqotlarda ta'lim sifatni belgilaydigan samaradorligini har tomonlama oshirish va rejalashtirilgan o'sishini ta'minlaydigan zamonaviy ta'lim dasturlarida haqiqiy operatsion tizimlar orqali professor-o'qituvchilar kasbiy malakasining pedagogik diagnostikasiga bog'liq bo'ladigan jihatlarni nazorat qiladigan usullarni takomillashtirib borish lozim. Shuning uchun pedagogik diagnostika mexanizmidan foydalangan holda OTM o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini xolis va ishonchli tahlil qilish ularning pedagogik faoliyati (OTM larda ilmiy tadqiqotlarida reyting) samaradorligini oshirish imkonini beradi. Oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning pedagogik va kasbiy mahoratini oshirishda ularning ilmiy tadqiqotlariga OTM larda tashkil etilgan ilmiy bo'limlar tomonidan doimiy nazoratni belgilab borish tavsiya etilgan. OTMlarning professor-o'qituvchilari ilmiy faoliyatini diagnostika qilish amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda individual o'qituvchi va professor o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish jarayoniga ta'sir qiluvchi pedagogik ahamiyatga ega omillarni aniqlash, shuningdek, pedagogik kadrlarni tayyorlashda zamonaviy kasbiy jihatlarni belgilab olish, moslashtirish va rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun diagnostika tizimini rivojlantirishimiz zarur. Ilmiy faoliyat bilan shug'illanadigan pedagog o'qituvchilarni OTM reytingi va xalqaro reytinglarga qo'shilishlarida imkoniyatlar yaratishimiz zarur. Hozirgi kunga kelib OTMlarda ilmiy tadqiqot markazlarini tashkil etish bu o'qituvchilarning ilmiy tadqiqotlarga qiziqishlarini oshiradi va sifatli jurnallarda o'z muallifligi bo'yicha maqolalarni chop etishda OTMlarda tashkil etilgan ilmiy tadqiqot markazlari yordam beradi. Hozirgi kunga kelib har turli ilmiy jurnallar mavjud. Bularda Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tan olgan nufuzli bazalarda indexlanadigan jurnallar ilmiy tadqiqotchilar, pedagoglar uchun tavsiya etib boriladi. O'qituvchilarning ilmiy pedagogik faoliyatini oshirish



uchun ularning xalqaro ta'lim platformalaridan foydalana olish qobiliyatlarini oshirish zarur. OTM larda ITM lar faoliyatini samarali tashkil etish orqali sifatli xalqaro jurnallarda maqola chop etishda ko'maklashish, o'qituvchi faoliyati davomida Google scholar va xalqaro ma'lumotlar bazalaridan foydalanishdagi imkoniyatlarni tushuntirish lozim. Bu tadqiqotlar o'qituvchilarning ilmiy faoliyatini va pedagogik mahoratini yanada oshiradi. Ilmiy tadqiqotlar mezonini ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar.

*Zamonaviy ta'lim modellarini rivojlantirish dasturlari asosida o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirishda metodlarda foydalanilgan ma'lumotlar yangiligi va aniq tahlil natijalariga asoslanganligiga e'tibor qaratish lozim.

* OTMlarda ta'lim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi doimiy o'qituvchilarning va talabalarning o'rganilgan bilimlarini va tajribalarini nazorat qilish kerak. Bular har bir fan miqyosida aniqlash lozim. Bunda har turli talabalar o'rtasida so'rovnomalar tashkil etish tavsiya etiladi.

* OTMlarning ta'limga oida yangi strategik tamoyillarga asoslangan dasturlari orqali pedagog kadrlarni tayyorlash va mahoratini oshirishda malaka oshirish tizimini joriy etish. Bunda o'qituvchi malakasini oshirish uchun turli mamlakatlarda ta'lim das'urlarini o'rganishi uchun ma'lum muddatga yuboriladi.

Bu kabi zamonaviy ta'lim mezonlarini takomillashtirishda ta'lim sifatini oshirish va o'qituvchilarning bilimini baholash asosiy ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Pedagogik mahoratni oshirish usullari va bosqichlari:

- Fanga doir metodlarni tayyorlashda xalqaro adabiyotlardagi yangi ma'lumotlardan foydalanish. Bunda mavzuga doir taqdimotlar, videoroliklar, suratlar va iqtiboslardan foydalanish mumkin.
- Pedagog doim yangi ma'lumotlarga ega bo'lib borish lozim. Talabalarning savollariga to'g'ri javob qaytarishi lozim. O'qituvchi har bir o'rganilgan bilimni eslab qolishi va bilimni oshirishi kerak.
- Fanga doir metodlarni tashkil etishda turli xil musobaqalar, amaliy va tajribalarga asoslangan mashg'ulotlarni tashkil etish kerak. Bu esa talabalarning fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga yordam beradi.

Biz oddiy maktablarda o'qituvchi o'quvchilarga darsliklar asosida ta'lim berish dasturidan foydalanish o'rinli deb hisoblaymiz. Hozirgi kunga kelib maktab darsliklari sodda va tushunarli. O'quvchilar mashg'ulot davomida bemalol ilg'b oladi. Bunda o'qituvchidan bilim va mahorat talab etiladi. E'tiborli jihati shuki, ta'lim berishda tushuntirish metodi muhim ahamiyatga ega. Ta'limda tushuntirish metodi qancha tushunarli bo'lsa ta'lim sifati shuncha yuqori bo'ladi. Bu esa bir nechta ilmiy va nazariy tadqiqotlarda o'z isbotini topgan.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim modellarini tashkil etishda ta'lim dasturlaridan foydalanish bu pedagogik mahoratni oshirishda tavsiya etildi. Bunda ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va pedagogik salohiyatni oshirishda yangi mezonlarni baholash tamoyillarini ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar berib o'tilgan. Bu ko'rsatmalar orqali biz OTMlarda sifatli ta'lim samaradorligini yanada oshiramiz va o'qituvchilarning kasbiy faoliyati oshishida yordam beramiz. O'qituvchilarga metodlarni tayyorlashda zamonaviy ma'lumotlar bazasi yoki elektron kutubxonalardan foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratib berishimiz mumkin bo'ladi. Oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda



ta'limning zamonaviy modellarini yanada takomillashtirish orqali biz malakali mutaxasislarni tarbiyalaymiz. Talabalarning kelajakda o'z kasbining yetuk mutaxasislari bo'lib yetishishida yordam bergan bo'lamiz. Shu tadqiqot davomida ko'plagan yangi bilimlarga ega bo'ldim. Tadqiqot davomida tajribali pedagog va psixologlarning fikrlari tinglandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumamuratov R., Kaipbergenov A. APPLICATION OF INFORMATION AND COMPUTER TECHNOLOGIES IN TEACHING CHEMISTRY //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 7. – С. 21-26.
2. Jumamuratov R. E., Kaipbergenov A. T. TEACHING CHEMISTRY IN HIGH SCHOOLS //Экономика и социум. – 2023. – №. 8 (111). – С. 101-107.
3. Jumamuratov R. E., Kaipbergenov A. T. STAGES OF PEDAGOGICAL ANALYSIS OF MODERN EDUCATIONAL MODELS IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN //Экономика и социум. – 2023. – №. 8 (111). – С. 96-100.
4. Esenbaevich J. R. Use of New Educational Programs and Methods of Pedagogical Activity in Schools //American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769). – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 491-495.
5. Esenbaevich J. R. Development of a Program for the Use of Modern Methods and Pedagogical Experiences in Educational Processes at School //American Journal of Science on Integration and Human Development (2993-2750). – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 178-182.
6. Dauletova G. M. MOSLASHISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK SIFATLARI //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 37-40.
7. Polatovna R. N. OLIY TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK METODLARNI TAHLIL QILISHGA ASOSLANGAN TADQIQOTLAR //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 67-70.
8. Polatovna R. N. Innovative Approaches in the Formation of Pedagogical and Psychological Methods in the Higher Education System //American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769). – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 574-578.
9. Barno S. TALABALARDA AXLOQIY-ESTETIK QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 111-114.
10. Asamatdinova J., Saidboeva B. DIAGNOSIS AND CORRECTION OF THE DEVELOPMENT OF VALUE ORIENTATION IN STUDENTS IN THE PROCESS OF MORAL AND AESTHETIC EDUCATION //Open Access Repository. – 2023. – Т. 9. – №. 6. – С. 274-277.
11. Saidboeva B. COMPETENCE OF MANIFESTATION OF MORAL AND AESTHETIC VALUES IN STUDENTS IN PRACTICE //Open Access Repository. – 2023. – Т. 9. – №. 6. – С. 109-113.
12. Turemuratova A., Kurbanova R., Saidboyeva B. EDUCATIONAL TRADITIONS IN SHAPING THE WORLDVIEW OF YOUNG PEOPLE IN FOLK PEDAGOGY //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 318-322.



13. Jarasovna K. R. The Role of Aesthetic Nature In Developing the Student's Personality //Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777). – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 107-110.
14. Kurbanova, R. (2023). Ta'lim jarayonida o'quvchilarni estetik tarbiya qilishning aksiologik dunyoqarashni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari.
15. Turemuratova A. TRADITIONS OF FORMING THE SPIRITUAL AND MORAL WORLDVIEW OF YOUNG PEOPLE IN PEDAGOGY //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 7. – С. 225-229.
16. Begibaevna T. A. Students' Thinking Skills and Outlook through Pedagogical Principles in the Higher Education System Formation //American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769). – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 358-361.